

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN JAMG'ARMA OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH AMALIYOTIDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH YO'LLARI

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Menejment fakulteti 2-kurs talabasi

Jaxbarov Abror Axror o'g'li

Annotation. Maqolada Tijorat banklari tomonidan jamg'arma operatsiyalarini amalga oshirish amaliyotida xorij tajribasini qo'llash yo'llari o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Tadbirkorlik, jamg'arma operatsiyalari texnologiya, resurs, innovatsiya kichik biznes subyektlari, tijorat banki, kredit, foiz stavkasi, kapital risk.

Tijorat banklari kredit portfelining siffatini baholash va undagi mavjud bog'lanishlarni aniqlash uchun kreditning mohiyatini bilish etarli emas. Tijorat banklar tomonidan amalga oshirilayotgan kreditlash jarayoni yuzasidan barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam qilgan kredit portfelining shakllantirish va boshqarish jarayonlarini o'rganib chiqish muhim ahamiyatga egadir.

V. V. Evsyukov, A. A. Kochetigov va D. N. Trutnev rossiyalik olimlari tijorat bank kredit porfelinin shakllantirning kompleks yondoshuvi yuzasidan tadqiqot olib borganlar. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda kredit taqdim qilish bo'yicha qarorlar qabul qilishda yordam beruvchi qarzdorning kredit xatarini, bozor va tijorat bank likvidligi xatarlarini kompleks tahlil qilish metodikasi keltirilgan. Bu olimlar, xozirgi kunda kreditlashda qarz oluvchining kreditga layoqatligini baholash mexanizmi nazariy-metodologik jixatidan etarli darajada ishlab chiqilmaganligi, matematik apparatning sust qullanilishi, ekspertlarning sub'ektiv hulosalariga asoslanib qolish, qarzdorning reyting ko'rsatkichlaridan iqtisodiy asoslantirilmagan holda kredit xajmining limitini belgilash ta'kidlab utganlar.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun ular tomonidan qarz oluvchining kredit xatarini baholash, tijorat bank vakillik hisob raqamini baholash va tijorat bank likvidligini baholash modellari taklif qilingan

Kredit har qanday munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish maxsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir'.

Ba'zi bir mijozlar kredit olishda oldingi davrdagi kabi kredit ob'ektlari bo'yicha xo'jjatlar rasmiylashtiradilar, ba'zi bir mijozlar esa yangi usul yordamida kredit olish uchun harakat qiladilar. Bularning barchasi xozirgi davrda kredit berish tizimi utish davrini boshidan kechirayotganidan xabar qiladi.

Kreditlash tizimi uchta asosiy elementlarga asoslanadi:

- kredit sub'ekti;
- kredit ob'ekti;
- kredit ta'minoti.

Kredit opreasiyalari texnologiyasi va uning tashkiliy tuzilmalarini hoxlagan tartibda boshqarish mumkin, Biroq har qanday tizimda ham mazkur uchta yirik element o'zining asos soluvchi (bazaviy) mohiyatini saklab koladi, ya'ni boshqacha qilib aytganda kredit jarayonining 'yuzini' va samarasini beligalb beradi.

Kreditlash tizimining bu bazaviy elementlari bir biridan ajralmas hisoblanadi. Bu elementlar bir-birini to'ldirsa tijorat bank kredit operasiyalari bo'yicha ijobiy natijalarga erishishi muqarrar bo'ladi. Ular o'rtasidagi birlikni uzilishiga olib keluvchi qilingan harakatlar esa kreditlash tizimini buzilishiga, uning faoliyat ko'rsatmasligiga va ssudalar qaytarilmasililigiga olib keladi.

Ma'lumki, markazlashgan boshqaruvin printsipiga asoslangan rejali iqtisodiyot davrida kreditlash tizimi e'tibori asosan kreditlash ob'ektiga qaratilgan edi. Korxona va tashkilotlar tijorat banklardan ssuda olish xuquqiga ega bo'lishi uchun faqat kreditlash ob'ektining mavjud bo'lishi etarli hisoblanar edi. Bunday kreditlash ob'ekti har safar mavjud bular, ya'ni shaxsiy va jalb qilingan mablag'larini tejash muammo bilan qiziqmagan korxonalar tovar-modiiy boyliklarni me'yordan ortiq jamlash,

ortiqcha ichshlab chiqarish harajatlariga yo'l qo'yish, umuman qushimcha mablag'larga extiyoj vujudga kelardi. Bunday holat asosan tijorat bank va kishlok xo'jalik sohasi o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topgan edi. Qishlok xo'jalik tashkilotlari mablag'larni chorvachilik va usimchilik sohasiga yo'naltirib kredit xajmi ko'paytirilishi lozimligi yuzasidan tijorat bankka ma'lumotlar taqdim qilishardi. Aynan mana shu vaqtida, kredit sub'ektini hisobga olmasdan, uning kreditga layoqatligi tahlil qilinmasdan avtomatik ravishda kreditlar berib yuborilishi kreditlarni uz vaqtida kaytirmaslik va oxir okibat ssuda qarzlari amnistiya qilinib davlat byudjeti mablag'lari hisobidan so'ndirilardi.

Uchta fundamental elementlar (kredit ob'ekti, subekti va ta'minoti)ning yig'indisi tizim sifatida amal qiladi. Biroq, ba'zi hollarda faqat ulardan bittasi etarli bo'lib ko'rinishi mumkin, shuning uchun kreditlash faoliyatini amalga oshirishda hususan bu borada muhim qarorlar qabul qilishda 'etti ulchab bir kes' printsipiga rioya qilish lozim.

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar bilan bir qatorda kreditlash tizimining yana bir muhim elementi – bu ishonch bildirish. Bu element kredit tushunchasining o'zidan kelib chiqadi, chunki 'kredit' lotin tilidagi 'credo'so'zidan 'ishonaman' degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, kreditda ikki taraf mavjud bo'ladi-kreditor va qarz oluvchi. Ular o'rtasida qaytarishlik asosida pul harakatlanadi. Bu harakat, tijorat bank tomonidan o'z vaqtida va belgilangan xajmda kredit berilishiga ishongan qarz oluvchi va qarz oluchi tomonidan maqsadli ishlatalishi, foiz va aosiy qarzlari o'z vaqtida qaytarilishiga ishongan qarz beruvchi o'rtasida ishonchlar mutanosibligini vujudga keltirib chiqaradi.

Kredit iqtisodiy munosabat bo'lib, bunda doimiy ravishda xatar ishtirok etadi va ishonch bildirish elementisiz bu jarayonni tasavur qilib bulmaydi. Ishonch bildirish elementi psixologik harakterga ega bo'lsa ham, kredit sub'ekti, ob'ekti va ta'minotini mutloq bilishga asoslangan. Hullas, ishonch bildirish bir tomonidan kredit munosabatlarinng muhim elementi sifatida vujudga kelsa, ikkinchi tomonidan belgilangan iqtisodiy asosga ega bo'lgan taraflarning o'zaro kelishuv pozisiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy tijorat bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 'tijorat banklari likvidligini tartibga solish to'g'risida'gi 421-sonli Nizomi ham kreditlarni boshqarishda muhim o'rinni egallaydi. Bu Nizomga muvofiq tijorat banklari bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarishlari lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Tijorat bank tomonidan barcha insayderlarga taqdim qilingan kreditlarning yalpi yig'indisi tijorat bankning ustav kapitalining 100%dan oshib ketmasligi lozim.

Mazkur normativlar va tijorat bank tomonidan berilgan kreditlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'lanish mavjud bo'lib, tijorat banklarning faoliyatini tartibga solish tizimida yana qator ko'rsatkichlar ham mavjudki, ular kredit tashkilotlari faoliyatining boshqa jixatlarini ko'rib chiqish bilan bir qatorda, kreditlash jarayoni bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar tarkibiga kapitalning etarlilik normativi va likvidlik normativlarini kritish mumkin.

Mamlakatimiz qonunlari va Qonunchilik xujjatlari kredit operasiyalarini amalga oshrish jarayonida xatar darajasini minimallashtirish lozimligiga yo'naltirilgan. Qonun chiqaruvchilarning fikriga ko'ra, quyidagi ko'rinishdagi chora-tadbirlar gurxi uning ijro qilinishiniga ko'maklashadi:

-tijorat banklar tomonidan extiyot choralarini kurish, kurish mumkin bo'lgan zararlarni konpensasiyalash uchun etarli potentsialga ega bo'lish, shu jumladan o'z kapitalning etarliligi va shakllantirilayotgan zhiralarni hisobiga;

-xatarlarni chegarash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan xatarlarni kismlarga ajratish yo'li bilan ularning yigilib qolish darajasini kamaytirish;

-ichki va tashki nazoratni ta'minlovchi chora tadbirlarni amalga oshirish.

Amaldagi Qonunchilik xo'jjatlari tijorat bank kredit portfelining boshqarilishini yahlit jarayon bo'lishiga yo'naltirilgan. Bu o'z navbatida kredit operasiyalarini rejalashtirish, tashkil qilish, koordinasiyalash, tahlil qilish, xodimlarni motivasiyalash va nazorat qilish imkoniyatini beradi. Mazkur tadbirlarning yahlit bo'lishi kredit portfelinini boshqarish samaradorligini oshiradi va kredit xatarini pasayishiga olib keladi.

Har bir tijorat bank o'zining kelajagi to'g'risida aniq tasavvurga va strategiyasiga ega bo'lishi kerak. Kreditlash sohasi bo'yicha strategiyani belgilab olishda, tijorat bank kredit ishlatalishi jarayonida vujudga kelgan holatni, kreditlashda mavjud bo'lган imkoniyat va xatarlarni doim bilmogi lozim. Kreditlash jarayonida strategik pozisiyalarni belgilab olish, tijorat bankning kreditlash sohasidagi kuchli va zaif taraflari majmuasi asosida amalga oshiriladi.

Tijorat bankda ishlab chiqilgan strategiya uning kredit siyosati asosini tashkil qiladi. Kredit siyosati bu-kreditor va qarz oluvchi o'rtasida, kredit hususiyatlari va iqtisodiyotda uning rolini joriy qilishga yo'naltirilgan strategik munosabatlarni tartibga soluvchi faoliyatdir. Kredit siyosati o'zining ma'nosи jixatidan, ma'lum bir muddat ichida tijorat bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tatibga soladigan va ular manfaatini joriy qilishga yo'naltirilgan faoliyatni ifodalaydi. Bu faoliyatning asosi maxsusus xo'jjat hisoblangan 'Kredi siyosati to'g'risidagi Nizom'da uz aksini topadi.

Kredit siyosati to'g'risidagi Nizomi tijorat bank kengashi tomonidan tasdiqlanib, kredit tashkilotining faoliyatini tartibga soluvchi muhim analitik xo'jjat hisoblanadi. Mazkur xo'jjat yordamida (boshqa xo'jjatlar bilan bir qatorda) Markaziy tijorat bank tijoart tijorat banklarining ichki nazoarti holatiga baxo beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T, 2005.
2. Степанов И.С. и др. Экономикастроительства. М. Юрайт, 2002.
3. Андреев Л.С., Резниченко В.С. Определение экономической эффективности инвестиционных проектов и инноваций в строительстве. М. «Экономика строительства», №9. М. Стройинформация, 2001йил.
- A. Стоун. Экономика и организация строительства. М., Экономика, 1999.